

BARQAROR RIVOJLANISHDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Gulamova Adolat Abdumanan qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

doktorantura bo'limi mutaxassisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-4220-8878>

E-mail: gulamovaadolat98@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21622271>

Annotatsiya. Tezisdan barqaror rivojlanish tamoyillari asosida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi suv resurslaridan foydalanish samaradorligining hozirgi holatini tahlil qilish hamda uni oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni asoslashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligi jahon o'rtacha darajasidan sezilarli past bo'lib, bu integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish tizimini joriy etish, suv tarifi siyosatini takomillashtirish va suv hisobga olish tizimini raqamlashtirish orqali oshirilishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, suv resurslari, iqtisodiy samaradorlik, suv unumdorligi, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish, virtual suv, suv tarifi, SDG 6.

KIRISH

Iqlim o'zgarishi, aholi sonining jadal o'sishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi hamda iqtisodiy faollikning kengayishi sharoitida suv resurslari dunyo miqyosida strategik ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy resurslardan biriga aylandi. Suv nafaqat qishloq xo'jaligi, sanoat va energetika tarmoqlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi, balki ekologik muvozanatni saqlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va aholi turmush sifatini oshirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Shu bois suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish masalasi bugungi kunda barqaror rivojlanish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining 6-maqsadi barcha uchun toza suv va sanitariya xizmatlaridan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning 6.4-vazifasi barcha iqtisodiy tarmoqlarda suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish hamda suv resurslaridan barqaror foydalanishni ta'minlashni nazarda tutadi. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston uchun mazkur masala yanada dolzarb hisoblanadi. Mamlakat Markaziy Osiyoning suv resurslariga cheklangan davlatlaridan biri bo'lib, yillik chuchuk suv resurslarining katta qismi transchegaraviy daryolar hisobiga shakllanadi. Mavjud hisob-kitoblarga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik chuchuk suv resurslari hajmi taxminan 531 kub metrni tashkil etadi. Shu bilan birga, BMTning SDG 6.4.1 ko'rsatkichi bo'yicha suvdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi 2022-yilda atigi 2,6 AQSh dollari/m³ni tashkil etgan bo'lib, bu jahon o'rtacha ko'rsatkichidan (taxminan 22 AQSh dollari/m³) bir necha barobar pastdir. Mavjud holat suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro prognozlariga ko'ra, 2040-yilga borib O'zbekiston suv tanqisligi xavfi yuqori bo'lgan dunyoning eng zaif 33 davlati qatoridan joy olishi mumkin. Ushbu holat suv resurslarini boshqarishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish tamoyillarini keng joriy etish, suv narxlash tizimini takomillashtirish hamda raqamli monitoring va hisobga olish tizimlarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, barqaror rivojlanish sharoitida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi barqaror rivojlanish konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mavjud suv resurslaridan eng yuqori iqtisodiy natijaga erishgan holda oqilona foydalanishni anglatadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushuncha, avvalo, suv unumdorligi (Water Productivity) orqali baholanadi. Mazkur ko'rsatkich suvning bir kub metri hisobiga yaratilgan qo'shilgan qiymatni ifodalaydi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi SDG 6.4.1 indikatorining asosini tashkil etadi. Suv unumdorligining yuqori bo'lishi iqtisodiyot tarmoqlarida resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda suvni boshqarish tizimining mukammalligini aks ettiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida suv resurslaridan foydalanishning tarmoq tarkibi muayyan nomutanosibliklarga ega. Respublikada mavjud chuchuk suv resurslarining 90–92 foizi qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga yo'naltiriladi. Biroq aynan ushbu tarmoqda suvning iqtisodiy qaytimi boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha past darajada saqlanib qolmoqda. Buning asosiy sabablari sug'orish infratuzilmasining eskirganligi, ochiq kanallarda suv yo'qotishlarining yuqoriligi, suv hisobini yuritish tizimining yetarlicha raqamlashtirilmaganligi hamda iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, magistral va xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti o'rtacha 53–58 foizni tashkil etadi, natijada uzatilayotgan suvning sezilarli qismi iste'molchiga yetib bormasdan yo'qotiladi. Shuningdek, iqlim o'zgarishi ta'sirida Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv oqimining kamayishi, muzliklar hajmining qisqarishi hamda qurg'oqchilik davrlarining ko'payishi kelgusida suv resurslariga bosimni yanada kuchaytirishi prognoz qilinmoqda. Shu sababli suvdan foydalanish samaradorligini oshirish iqtisodiy emas, balki ekologik va ijtimoiy xavfsizlik masalasi sifatida ham qaralmoqda.

1-jadval

O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanishning ayrim ko'rsatkichlari¹

Ko'rsatkich	Qiymati
Aholi jon boshiga chuchuk suv resurslari	531 m ³ /yil
Qishloq xo'jaligida suv iste'moli ulushi	90–92 %
Sug'orish tizimlari foydali ish koeffitsiyenti	53–58 %
Suvdan foydalanish samaradorligi (SDG 6.4.1, 2022)	2,6 AQSh doll./m ³
Jahon o'rtacha ko'rsatkichi	22 AQSh doll./m ³
2030-yilgacha rejalashtirilgan suv tejash	15 mlrd m ³
Suv samaradorligini oshirish maqsadi	25 %

1-jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning eng samarali usullaridan biri Integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish (Integrated Water Resources Management – IWRM) tizimini joriy etish hisoblanadi. Mazkur

¹ BMT SDG ma'lumotlari, Strategik islohotlar agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

yondashuvda suv resurslari ma'muriy chegaralar emas, balki daryo havzalari tamoyili asosida boshqariladi. Natijada suv taqsimoti qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika va kommunal xo'jalik ehtiyojlarini kompleks hisobga olgan holda amalga oshiriladi. OECD va Jahon banki ekspertlarining baholashicha, IWRM tizimini to'liq joriy etish suv yo'qotishlarini 15–25 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

Suv samaradorligini oshirishda “virtual suv” konsepsiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, eksport qilinayotgan mahsulot tarkibida sarflangan suv hajmi ham iqtisodiy baholanishi lozim. Masalan, suv talabchan ekinlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali bir xil suv hajmidan ko'proq iqtisodiy foyda olish mumkin.

Suv tariflari siyosati iqtisodiy samaradorlikni oshirishning yana bir muhim instrumentidir. Rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan bosqichli differensial tariflar tizimi iste'mol hajmi oshgani sari tarif stavkalarining ortib borishini nazarda tutadi. Natijada iste'molchilar suvni tejashdan iqtisodiy manfaatdor bo'ladilar. Xitoy, Isroil va Avstraliya tajribasi shuni ko'rsatadiki, mazkur mexanizm suv iste'molini o'rtacha 10–20 foiz kamaytirishga xizmat qilgan.




O'zbekistonda ham “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” (PF–60) hamda “O'zbekiston – 2030” strategiyasi² (PF–158) doirasida suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, suv hisobini raqamlashtirish va keyingi besh yil davomida 15 milliard kub metr suvni tejash hamda suvdan foydalanish samaradorligini 25 foizga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

1-rasm. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari³

² <https://lex.uz/docs/-6600413>

³ Ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



2-rasm. O'zbekistonda suvdan foydalanishning tarmoqlar kesimidagi tarkibi ⁴

Xalqaro moliya institutlari, jumladan OECD va Jahon banki hisobotlarida O'zbekiston uchun suv xo'jaligi tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslarini mustahkamlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, suv infratuzilmasiga investitsiyalar hajmini oshirish hamda suv xo'jaligi tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shu bilan birga, sun'iy intellekt, IoT sensorlari, masofadan zondlash texnologiyalari va GIS platformalaridan foydalanish suv resurslarini real vaqt rejimida monitoring qilish, yo'qotishlarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yagona omil bilan emas, balki iqtisodiy, institutsional, texnologik va ekologik choralarni o'zaro uyg'un holda amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ayniqsa, integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish tizimini joriy etish, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli monitoringni kengaytirish va suv tejoychi texnologiyalarni ommalashtirish O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish barqaror rivojlanishga erishishning muhim sharti ekanligini tasdiqladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, havza printsipiga asoslangan integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish tizimini to'liq joriy etish; ikkinchidan, suv resurslarini hisobga olishning raqamli monitoring tizimini (masofaviy zondlash va "aqlli" hisoblagichlar asosida) yaratish; uchinchidan, hajmga asoslangan differensial suv tarifi tizimini bosqichma-bosqich joriy etish; to'rtinchidan, suv unumdorligi ko'rsatkichini hududiy va tarmoq darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlariga majburiy indikator sifatida kiritish; beshinchidan, suv xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun xususiy-davlat sheriklik va xalqaro moliya institutlari resurslarini jalb etishni kengaytirish. Ushbu chora-tadbirlarning

⁴ BMT SDG ma'lumotlari, Strategik islohotlar agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

kompleks amalga oshirilishi O'zbekistonda suvdan foydalanish samaradorligini jahon o'rtacha darajasiga yaqinlashtirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.
3. Bekchanov M., Karimov A., Manschadi A.M Virtual water concept for economic and ecological restructuring: evidence from Uzbekistan // International Input-Output Association (IIOA) konferensiya materiallari. – URL: https://www.iioa.org/conferences/20th/papers/files/818_20120329081_Bekchanov_et_al_Virtual_Water_Uzbekistan_14032012.doc
4. FAO AQUASTAT Database: Uzbekistan Country Profile // Food and Agriculture Organization of the United Nations. – URL: <https://www.fao.org/aquastat>
5. Country Acceleration Case Study – Uzbekistan // UN-Water. – URL: <https://www.unwater.org/publications/country-acceleration-case-study-uzbekistan>
6. Strengthening the Economic, Financial and Technological Dimensions of Water Efficiency in Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2023.
7. NBU Green Growth and Climate Change in Uzbekistan Policy Dialogue Series // World Bank Group. – URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099240007072223752/pdf/P1771080ed66408f0bcd9015de19bc66dc.pdf>
8. Water Resource Management and Transition to a Green Economy: Institutional and Economic Mechanisms in Uzbekistan // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – URL: <https://cajitmf.casjournal.org/index.php/CAJITMF/article/view/1222>